



Научно-образовательный электронный журнал

ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ

**Выпуск №45-5
(декабрь, 2023)**



Международный научно-образовательный
электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

ISSN 2782-4365

УДК 37

ББК 94

**Международный научно-образовательный электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №45-5 (декабрь, 2023).
Дата выхода в свет: 01.01.2024.**

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.

Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»

© Коллектив авторов

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Пестерев С.В. – гл. редактор, отв. за выпуск

Артикова Мухайохон Ботиралиевна	доктор педагогических наук, доцент
Ахмедов Ботиржон Равшанович	доктор философии в филолог. науках (PhD), доцент
Батурин Сергей Петрович	кандидат исторических наук, доцент
Бекжанова Айнура Мархабаевна	доктор философии по педагог. наукам (PhD), доцент
Боброва Людмила Владимировна	кандидат технических наук, доцент
Богданова Татьяна Владимировна	кандидат филологических наук, доцент
Демьянова Людмила Михайловна	кандидат медицинских наук, доцент
Еремеева Людмила Эмировна	кандидат технических наук, доцент
Жуманова Фатима Ураловна	кандидат педагогических наук, доцент
Засядько Константин Иванович	доктор медицинских наук, профессор
Исломов Саидахон Тургуновна	доктор философии по техническим наукам (PhD), доцент
Колесников Олег Михайлович	кандидат физико-математических наук, доцент
Коробейникова Екатерина Викторовна	кандидат экономических наук, доцент
Ланцева Татьяна Георгиевна	кандидат экономических наук, доцент
Мухамедова Лола Джураевна	доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Нарзикулова Фируза Ботировна	доктор психологических наук
Нобель Артем Робертович	кандидат юридических наук, доцент
Ноздрина Наталья Александровна	кандидат педагогических наук, доцент
Нуржанов Сабит Узакбаевич	доктор историч. наук (dsc), старший научный сотрудник
Павлов Евгений Владимирович	кандидат исторических наук, доцент
Петрова Юлия Валентиновна	кандидат биологических наук, доцент
Попов Сергей Викторович	доктор юридических наук, профессор
Расулходжаева Мадина Ахмаджоновна	доктор философии по педагог. наукам (PhD), доцент
Рахматова Фотима Ганиевна	доктор философии по педагог. наукам (PhD), доцент
Рахмонов Азизхон Боситхонови	доктор педагогических наук, доцент
Таспанова Айзада Кенжебаевна	доктор философии (PhD) по экономическим наукам
Таспанова Жыгагул Кенжебаевна	доктор философии по педагог. наукам (PhD), доцент
Табашникова Ольга Львовна	кандидат экономических наук, доцент
Тўрабоева Мадинахон Рахмонжон қизи	кандидат педагогических наук, доцент
Тюрин Александр Николаевич	кандидат географических наук, доцент
Уразова Лариса Карамовна	кандидат исторических наук, доцент

Усубалиева Айнура Абдыжапаровна	кандидат социологических наук, доцент
Фаттахова Ольга Михайловна	кандидат технических наук, доцент
Хожиев Шохрух Тошпулатович	доктор философии (PhD) по техническим наукам, доцент
Худайкулов Хол Джумаевич	доктор педагогических наук, профессор
Худойбердиева Хурият Каримбердиевна	доктор философии (PhD) в социальной философии
Ширинов Отабек Тувалович	доктор психологических наук (PhD)
Эшназаров Журакул	кандидат педагогических наук, профессор
Эшназарова Фарида Журакуловна	доктор философии по философии (PhD)
Яхяева Сожида Абдурахимовна	доктор философии (PhD) в социальной философии

YENGIL SANOATNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

Salimova Mohigul Abduxoliq qizi

Termiz davlat Universiteti o'qituvchisi

Xasanova Durdona Ravshan qizi

Termiz davlat Universiteti, Milliy libos va san'at fakulteti 3 kurs talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada, iqtisodiyotimizni rivojlantirishda yengil sanoat korxonalarining o'rnini hamda yengil sanoat tarmoqlarini samarali boshqarishni takomillashtirish muammolari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, sanoat, moliya-kredit, iqtisodiyot, soliq, yengil sanoat korxonalari, tadbirkor, raqamli iqtisodiyot, eksport.

Abstract: this article provides information about the role of light industrial enterprises in the development of our economy and the problems of improving the effective management of light industrial sectors.

Key words: Uzbekistan, industry, finance and credit, economy, tax, light industrial enterprises, entrepreneur, digital economy, export.

O'zbekistonda sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda davlatning roli, birinchi navbatda, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida milliy iqtisodiyot tarmoqlarini tartibga solish, sanoat tarmoqlariga ta'sir etuvchi tashqi salbiy omillarni bartaraf etish, eksportni rag'batlantirish, soliqqa tortishda imtiyozlar berish, moliya-kredit mexanizmlarini rivojlantirish masalalaridan iborat. Bu jarayonlar bevosita qonuniy-huquqiy jihatlar va institutsional o'zgarishlarga asoslangan holda davlat tomonidan tartibga solinishi lozim. Iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlari va rivojlanishning zamonaviy bosqichi yengil sanoat tarmoqlarini samarali boshqarishni alohida tadqiq qilishni talab qiladi. Zero xalqaro maydondagi yengil sanoat sohasida raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi

o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashishning kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu borada mamlakatimizda mazkur sohaga raqamlashtirishning tadbiriq \ etilishi, innovatsiyalarni keng jalb qilish, tadbirkorlarni moliyaviy rag'batlantirish va tartibga solish mexanizmini takomillashtirish, samarali boshqaruv orqali davlatning Yengil sanoat sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirayotgan chora-tadbirlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga nazariy yondashuvlarni tahlil qilamiz. Iqtisodchi olimlardan B.Z Milnerning fikricha tashkiliy-iqtisodiy boshqarish mexanizmiga qaror qabul qilish jarayonida tashkilot elementlarining yaxlitligini, resurslar bilan ta'minlash va taqsimlash tizimini, boshqaruv ob'ektlariga ta'sir qilishning asosiy usullarini, jumladan, tashkiliy, ma'muriy va iqtisodiy usullarning muvofiqligi sifatida qaraydi. Ular tashkiliy-iqtisodiy boshqarish mexanizmi aniq natijalarga erishish uchun ma'suliyatni his etish, maqsadlarni aniqlash, faoliyat ishtirokchilarini undash va motivlashtirish, resurslar bilan ta'minlash va ularni taqsimlash kabi vazifalarni bajarishi kerak degan fikrni ilgari suradi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqa mamlakatlar kabi, O'zbekiston uchun ham uning dunyo miqyosidagi raqobatbardoshligini belgilab beradigan strategik ahamiyatga molik masalalardan biri hisoblanadi. SHu boisdan mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va yengil sanoatda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish zarur. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda avvalo shu sohaga kerakli kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratish, raqamli iqtisodiyot uchun kerakli bo'lgan yuqori malakali kadrlarni o'rta va oliy ta'lim muassasalarida tayyorlashni yo'lga qo'yish, yengil sanoat tarmoqlarining yuqori malakali dasturchilar va soha mutaxassislarini tayyorlashni yo'lga qo'yish va bu boradagai xorij tajribalarini o'rganish, elektron platformali texnologiyalardan foydalangan xolda yengil sanoat tarmoqlarini jahon bozorida keng targ'ib qiluvchi milliy ma'lumotlar to'plamlarini yaratish. O'zbekiston Respublikasida so'nggi 10 yil ichida yengil sanoati mahsulotlarining eksporti oshdi, eng avvalo, gilam va gilam buyumlari , paypoq buyumlari, tikuvchilik-to'qimachilik

kiyimlari va to'qimachilik gazlamalari eksporti tezkor o'sdi. To'qimachilik va yengil sanoatining raqobatbardoshligi hamda innovatsion mahsulotlarining sifat darajasiga e'tibor O'zbekistonning jahon bozorida past mavqeini va o'rta hamda uzoq muddatli istiqbolda chora-tadbirlar, mexanizmlar ishlab chiqarish zaruratini ko'rsatadi. Keyingi yillarda mamlakatimiz yengil sanoat korxonalari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli ravishda bajarishni davom ettirmoqda. Ularning bajarilish darajasiga davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi o'z ta'sirini ko'rsatayotgan bo'lishiga qaramay, uning ta'sirchanlik darajasi O'zbekistonda ishlab chiqilayotgan va hayotga tatbiq etilayotgan oqilona iqtisodiy siyosat tufayli kamaytirilmoqda. Bunday sharoitda mamlakatimiz yengil sanoat korxonalarining ishlab chiqarish dasturlari bajarilishiga nisbatan bozor iqtisodiyotining zamonaviy talablariga mos barqaror qat'iy bir tendensiyaning tarkib toptirishga harakat qilishi lozim. Bu jarayonda ularning moliyaviy jihatlariga jiddiy e'tibor berish alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.02.2021 yildagi «O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasining to'qimachilik va tikuv-trikotaj sohasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va undan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga binoan, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sohasidagi tashkilotlarga Jamg'armadan mablag' ajratish tartibi, daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzish tartibi, to'qimachilik va tikuv-trikotaj tarmoqlari tashkilotlarida xalqaro standartlarni joriy etish, tayyor mahsulotlarni tashqi bozorlar talablarini hisobga olgan holda sertifikatlash bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish, soha tashkilotlarining xalqaro ko'rgazmalar va yarmarkalarda ishtirok etish, milliy brendlarni yaratish va ilgari surish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash, ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalarni amalga oshirish, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, jumladan ularni xorijga o'qish uchun yuborish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilandi. Bu kabi muammolar sanoatda tarkibiy investitsion siyosatni yanada takomillashtirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab etadi. Shu bilan birga mamlakat sanoati rivojlanishini ta'minlovchi quyidagi yo'nalishlarni taklif etamiz: - investitsion ishlab chiqarishni rivojlantirish, keng ko'lamli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan,

ilmiy asoslangan loyihalar ishlab chiqish; - korxonalarda innovatsion salohiyatni takomillashtirish, ilm va yuqori texnologiya talab qiladigan yangi korxonalar tashkil etish va import mahsulotlari bilan raqobatlasha oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish; - rivojlangan mamlakatlarning sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi zamonaviy texnika-texnologiyalarini import qilish siyosatini jadallashtirish; - sanoatda xususiy tarmoq va kichik tadbirkorlik ulushini oshirish; - diversifikatsion faoliyatni takomillashtirish, ichki zahira va mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanishni ta'minlash lozim bo'ladi. Mamlakatimizda amalga oshirilgan va oshirilayotgan islohotlarning barchasi mamlakat makroiqtisodiy barqarorligining oshishi bilan birga, aholi turmush farovonligiga ijobiy ta'sir etmoqda va ularning davom ettirilishini davrning o'zi taqozo etmoqda. Yuqoridagilardan xulosa qilib ta'kidlash lozimki, yengil sanoat tarmoqlarida tashkiliy-boshqaruv usullar soha faoliyatini davom ettirishda va korxonaning asosiy maqsadi bo'lgan foyda olishda katta ahamiyatga ega. Korxonada ish yuritish tartibi qanchalik samarali yo'lga qo'yilgan bo'lsa, boshqaruv tuzilmasi samarali, rejali, uzoqni ko'zlab tuzilgan bo'lsa ishning natijasi ijobiy bo'ladi. O'zbekiston yengil sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning strategik maqsadlari boshqaruv strukturasini takomillashtirishga bog'liq va u quyidagi yo'nalishlar orqali ifodalanadi: - Iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish, yengil sanoat tarmoqlarini bozorini shakllantirish va rivojlantirish;

Foydalanilgan adabiyotlar: 1. Umarova, Zevi Odilovna, and Feruza Yaxyoevna Obidova. "GLOBALLASHUV SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNI BOSHQARISH." Educational Research in Universal Sciences 2.3 (2023): 203- 207. 2. Obidova, Feruza Yaxyoevna, and Zevi Odilovna Umarova. "BOSHQARUV FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA KADRLARNING GENDER TENGLIGI." Educational Research in Universal Sciences 2.3 (2023): 208-215. 3. Umarova, Z. O. "BUSINESS OPPORTUNITY FOR TOURISM DEVELOPMENT." Экономика и социум 10 (2020): 275-278.